
Vol. 2, No. 1 (2026)
ISSN-L: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN
ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



Vol. 2, No. 1 (2026)

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Maxmudova D.A. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov N.A.– pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

HARBIY TA’LIM MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Sotvoldiyev Abdulhoshim Yuldashovich
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
Harbiy ta’lim fakulteti uslubiy tayyorgarlik sikl katta o‘qituvchisi, dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada harbiy ta’lim mashg‘ulotlarida pedagogik va tashkilotchilik tamoyillarini qo‘llash orqali ta’lim samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning harbiy tayyorgarlik darajasini mustahkamlash imkoniyatlari asoslab beriladi. Harbiy ta’lim jarayonida mashg‘ulotlarni rejalashtirish, o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish va nazorat qilish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada harbiy tayyorgarlikda metodik yondashuvlar, interaktiv va amaliy mashg‘ulotlarning ahamiyati, shuningdek, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdagi roli ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: o‘quv jarayoni, metodik yondashuvlar, interaktiv mashg‘ulotlar, harbiy ta’lim, amaliy mashg‘ulotlar, o‘quvchilarning malakasi, ta’lim samaradorligi.

Аннотация: В статье обоснованы возможности повышения эффективности обучения и укрепления уровня военной подготовки учащихся путем применения педагогических и организационных принципов в военном обучении. Анализируются вопросы планирования занятий, эффективной организации и контроля учебной деятельности в процессе военного обучения. В статье также рассматриваются методические подходы к военной подготовке, важность интерактивных и практических занятий, а также их роль в формировании знаний, умений и навыков учащихся.

Ключевые слова: образовательный процесс, методические подходы, интерактивные занятия, военное образование, практические занятия, квалификация учащихся, эффективность образования.

Annatation: This article substantiates the possibilities of increasing the effectiveness of military education and strengthening the level of military training of students by applying pedagogical and organizational principles in military training. In the process of military education, issues of planning training, effective organization and control of training activities are analyzed. The article also highlights the importance of methodological approaches, interactive and practical training in military training, as well as their role in the formation of students' knowledge, skills and abilities.

Keywords: educational process, methodological approaches, interactive training, military education, practical training, student skills, educational effectiveness.

KIRISH

Mamlakatimizda boshqa sohalarda bo‘lganida singari harbiy mutaxassislar tayyorlashda ham katta ijobiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Ofitser kadrlarga qo‘yiladigan talablar oshib bormoqda. Chunki hozirgi ofitser faqat ma’lum bir sohada chegaralangan bilimlar egasi bo‘lgan tor ixtisosli mutaxassis emas, balki chuqur intellektual qobiliyatga ega bo‘lgan, keng dunyoqarashli, yuksak madaniyatli va ma’naviyatli inson, o‘z bilimi, shaxsiy namunasi bilan o‘z bo‘ysunuvchilariga tarbiya va ta’lim bera oladigan pedagog bo‘lishi zarur. [1]

Talaba kursantlarning o‘zlashtirish jarayonidagi faoliyatlari bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashdan iborat bo‘lib, ta’lim jarayoni esa tarbiya jarayoni bilan chambarchas bog‘langan holda amalga oshiriladi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Harbiy mashg‘ulotlar nazariy, amaliy, ko‘rgazmali, taktik, taktik saf, nazorat shakllarida o‘qitilishi va ularning aksariyat qismi amaliy bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasinin Qurolli Kuchlari Nizomlarining talablari asosida olib borilishi, otish tayyorgarliklari bo‘yicha mashg‘ulotlari o‘quv va jangovor qurollar bilan ishlash bo‘yicha ko‘rsatma va yo‘riqnomalarga amal qilinishi, mashg‘ulotlarning aksariyat qismi, o‘quv-moddiy baza bilan chambarchas bog‘liqligi, harbiy ta’lim mashg‘ulotlarining o‘ziga xos tomonlari bo‘lib hisoblanadi. [2]

Mashg‘ulot rahbarining harbiycha mashg‘ulotlarning o‘ziga hos prinsiplaridan og‘ishmagan holda o‘z faoliyatiga tanqidiy qarashi, ta’lim berishning ilg‘or yangi uslublarini qo‘llashda orttirilgan tajribalarga tayanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Harbiy ta’limni o‘qitilishi jarayoni o‘ziga hos mantiqiy ketma-ketlik bilan aniq maqsadga yo‘naltirish bilan amalga oshiriladi. Ketma-ketlik quyidagi bosqichlardan iborat bo‘lishi ko‘zda tutiladi: mashg‘ulotning maqsadidan kelib chiqib, kursantlar oldiga topshiriq qo‘yish; mashg‘ulotni o‘tkazilishida kursantlarda bilimga bo‘lgan qiziqishni hosil qilishga yo‘naltirish; mashg‘ulot davomida kursantlar tomonidan yangi materialni qabul qilinishining murakkab bo‘lmagan usullaridan foydalanish; qabul qilingan yangi materialni tahlil qilish, umumlashtirish; ilmiy tushunchalarni hosil qilish; egallagan bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish; malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish; bilim, malaka va ko‘nikmalarni qo‘llash; kursantlar egallagan bilim, malaka va ko‘nikmalarni tekshirish; ta’lim berish natijalarini tahlil qilish. [3]

Harbiy ta’limni tashkillashtirishda bu ketma-ketlikda o‘qitishni, harbiy pedagogik jarayoni bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan harbiy tayyorgarlik va tarbiyani o‘z ichiga olgan murakkab ijtimoiy hodisadir.

Harbiy tayyorgarlik deganda askarlarga amaliy faoliyat uchun zarur bo‘lgan harbiy bilim, mahorat va ko‘nikmalarni berishning uyushgan va maqsadli jarayoni, shuningdek jangovar harakatlarni o‘tkazish (jangovar vazifalarni bajarish) uchun harbiy jamoalarni tayyorlash tushuniladi.

Harbiy pedagogik jarayonning mohiyati komandirlarning zamonaviy urush sharoitida jangovar operatsiyalarni muvaffaqiyatli o‘tkazish (jangovar vazifalarni bajarish) uchun harbiy mutaxassislar, bo‘linmalar va jamoalarni tayyorlash bo‘yicha maqsadli tashkiliy va ma’rifiy faoliyatidan iborat. Harbiy yo‘nalish, askarlarning o‘ziga xos mehnat va yashash sharoitlari harbiy pedagogik jarayonning mazmuni, metodologiyasiga qat'iy ta’sir qiladi, uning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. [4]

Harbiy pedagogik jarayonning dolzarbligi va muhim xususiyati shundan iboratki, u harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyati bilan ajralmas birlikda amalga oshiriladi va aniq amaliy xususiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. [5] Harbiy xizmatchilar tomonidan o‘quv jarayonida olingan bilim, mahorat va ko‘nikmalar jangovar harakatlarda jangovar topshiriqlarni bajarishda qo‘llaniladi. Bu, bir tomondan, harbiy xizmatchilardan yuqori bilim, ko‘nikma, mahorat va qobiliyatlarini talab qiladi, boshqa tomondan - jangovar va safarbarlik tayyorgarligini mustahkamlash, saqlashga va rivojlantirishga yordam beradi. [6]

Harbiy pedagogik jarayon-bu harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalarni jangovar vazifalarni bajarish uchun qo‘llanilashga mo‘ljallangan harakatlarga tayyorlash bo‘yicha nafaqat komandirlar, baki, o‘quv tuzilmalari mutaxassislarining maqsadli, uyushgan ta’lim faoliyati tizimidir.

Tinchlik davrida, harbiy-pedagogik jarayonning asosiy maqsadi, harbiy xizmatchilar va bo‘linmalarning yuqori jangovar tayyorgarligini saqlash, ularning jangovar tayyorgarlik vazifalarini muvaffaqiyatli hal etish uchun munosib ravishda tayyorlashdan iborat. [7]

TAHLIL VA NATIJALAR

Bo‘lajak ofitserlarni va harbiy jamoalarni tayyorlash, harbiy qismlar va bo‘linmalarning jangovar tayyorgarligini oshirishda ofitserlarning, komandir va tarbiyachilarning harbiy-pedagogik bilimlari darajasiga qo‘yilayotgan talablar tobora oshib bormoqda. Shu bilan birga harbiy pedagogikaning vazifalari doirasi ham kengayib bormoqda. [8]

Harbiy pedagogikaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

harbiy-pedagogik jarayonning mohiyati, xususiyatlari va qonuniyatlarini va uning tarkibiy qismlari bo‘lmish ta’lim, tarbiya, ruhiy tayyorgarlik, rivojlanish, mustaqil tarbiya, mustaqil ta’lim olish jarayonlarini o‘rganish;

jamiyatda va Qurolli Kuchlarda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar asosida, shuningdek jangovar texnika va qurol-yarog‘ning takomillashuvi, jangni olib borish usullari, shaxsiy tarkibdagi miqdor va sifat o‘zgarishlari, jangovar tayyorgarlikni kuchaytirish vazifalaridan kelib chiqib ta’lim va tarbiya prinsiplarini aniqlash, shakllari va metodlarini rivojlantirib, takomillashtirib borish;

turli toifadagi harbiy xizmatchilar bilan turli sharoitlarda ta’lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda ta’lim va tarbiya prinsiplari talablarini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharoitlarini aniqlash va asoslash;

qo‘shin turlarining, turli ixtisoslikdagi harbiy mutaxassislarni tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib ta’lim va tarbiya metodlari tizimini ishlab chiqish va takomillashtirib borish;

ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil etish shakllarini takomillashtirish va rivojlantirish, askarlar va harbiy jamoalar ta’limi va tarbiyasi darajasini aniqlash, tekshirish va baholashning samarali yo‘llarini tadqiq qilish;

harbiy-pedagogik jarayonning rivojini bashorat qilish rejalashtirish;

didaktik tadqiqotlarning markaziy muammosi sifatida askarlar bilish faoliyatini faollashtirish, alohida olingan askarlar va harbiy jamoalarning yuksak harbiy-professional tayyorgarlik darajasiga ega bo‘lish vaqtini qisqartirish yo‘llarini, usullarini va vositalarini izlash va ularni qo‘llash;

harbiy jamoalarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish va ta’lim-tarbiya jarayonida ularni hisobga olish;

jangovar tayyorgarlik va harbiy intizomni, askarlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ma’naviy-axloqiy kamolotga erishish yo‘llarini o‘rganish;

harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalar o‘rtasida musobaqa tashkil etishning pedagogik shartlarini aniqlash;

jamoani jipslashtirish, unda nizom talablariga xos o‘zaro munosabatlarni, sog‘lom ruhiy muhit va ijtimoiy fikrni shakllantirish metodlarini o‘rganish va boshqalar. [1]

XULOSA

Harbiy pedagogik jarayonda tashkillashtiriladigan o‘quv-tarbiyaviy jarayon zamonaviy ta’lim jarayonidan o‘zining hosligi bilan tubdan farq qiladi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan ta’lim-tarbiya jarayoni va o‘quv-moddiy bazaning shakllantirilishi va o‘quv-tarbiyaviy jarayonda qo‘llanilishi faqatgina harbiy pedagogikaga mosligi va hosligi bilan umumiy pedagogikadan ajralib turadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Satibaldiyev A., Karimjonov A. Harbiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma. T.: 2004.

2. Добродон Е.В. Современная военная педагогика: проблемы и перспективы / Вестник Донецкого педагогического института. 2018. - С.122.

3. Ширли В. Военная психология и педагогика / Под ред. В. Ф. Кулакова. М.: Совершенство, 1998. 140 с.

4. Беспалько В.П. С лагаемы е педагогической технологии. — Москва: Педагогика, 1989.

5. Tolipov O‘, Usmonboyeva M. “Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari”. Toshkent:” Fan”- 2006.

6. Tolipov O‘, Usmonboyeva M. “Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot”. T oshkent. “Fan”- 2005.

7. Tursunov I., Nishonaliyev U. “Pedagogika kursi”. Toshkent: “Pedagog - 1997.

8. Farberman B. “Ilg‘or pedagogik texnologiyalar” Toshkent: “Fan” - 2000.

MUNDARIJA

UYUSHMAGAN YOSHLAR VA ULARNING MUAMMOLARI Atabayeva Nargis Batirovna	**4**
TURLI YOSH DAVRLARIDAGI SHAXSLARDA O‘ZINI O‘ZI FAOLLASHTIRISH VA EMOTSIONAL SOHA O‘RTASIDAGI ALOQADORLIKLAR Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li	**25**
O‘ZBEK VA QIRG‘IZ QIZLARINI ETNIK STEREOTIPLARI VA IJTIMOIY USTANOVKALARINI ILMIY TADQIQ ETISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI Djuxonova Noxida Xayotjonovna	**33**
ZAMONAVIY SHIFOKORLAR PROFESSIONAL KARERASIDA PSIXOLOGIK OMILLARNING TA’SIRI Arziqulov O‘tkirbek Maxammatovich	**43**
KIMYOVIY ADDIKTATSIYALARDA OILAVIY MUHITNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI Mirashirova Nargiza Anvarovna., Raxmatova Zulxumor Alimovna	**50**
TYUTORLARNING BOSHQARUV USLUBLARI VA ULARNING TA’LIM SAMARADORLIGIGA TA’SIRI Alijonov Nurbek Ulug‘bek o‘g‘li	**56**
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY TAFAKKUR RIVOJLANISHINING JINSIY XUSUSIYATLARI Rajabov Murodil Jumaboyevich., Yuldasheva Shoxista Tojialiyevna	**70**
TA’LIM MUHITIDA O‘QUVCHI SHAXSI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK USULLARI Soliyev Farxodjon Sodiqovich., Akbarova Nigora Axmadjonovna	**78**

MUNDARIJA

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB O‘QUVCHILARIDA KASBIY O‘ZINI-O‘ZI BELGILASH: MOTIVATSION VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI Mo‘minov Davronjon Marifjon o‘g‘li	**92**
O‘ZBEK VA RUS QIZLARINI OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARINI AMALIY O‘RGANILISHI Usmonova Nargiza Raximjonovna	**102**
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ Мирзажонова Элеонора Топволдиевна	**110**
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RUHIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI Z.O.Abdullayeva	**117**
HARBIY FAOLIYATDA ZAMONAVIY STRESS OMILLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Abdumalikova Iroda Abdulaziz qizi	**125**
PSIXOLOGIK BARQARORLIK VA MOLIYAVIY STRESS MUAMMOSINING ILMIY TADQIQ ETILGANLIK DARAJASI Sotvoldiyeva Nargiza Abdukarimjon qizi	**136**
КОРРЕЛЯЦИЯ ИНФОРМАЦИОННОГО И ТЕМПЕРАМЕНТНОГО КРИТЕРИЕВ ВЕРТНОСТЕЙ В СФЕРЕ КОГНИТИВНОЙ СОЦИОНИКИ Туллекова Карина Сергеевна	**143**
TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARNING SHAKLLANISH OMILLARI VA BARTARAF ETISH YO‘LLARI Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	**157**

MUNDARIJA

MURAKKAB BICHIMDAGI USTKI KIYIMLARNI MODELLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Sattorova Ra’no Abdunazar qizi., Sindarova Shoxista Maxammatovna	**166**
HARBIY TA’LIM MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI Sotvoldiyev Abdulhoshim Yuldashovich	**173**
HARBIY TA’LIM FAKULTETI TALABALARIDA TOLERANTLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI Qarshiev Azamat Raxmonovich	**177**
INTERFAOL TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHDA RAQAMLI INFRATUZILMANING ROLI VA AHAMIYATI Kenjayev Anvar Sattorovich., Kobilov Nozimjon Mingboyevich	**183**
TA’LIM TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA CHAQIRIQQACHA HARBIY TA’LIM TALABALARINI O‘QUV-BILUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH Kobilov Nozimjon Mingboyevich., Kenjayev Anvar Sattorovich	**189**
O‘ZBEKISTONDA BAG‘RIKENGLIK SIYOSATINI YURITISHDA ETNOTURIZMNING O‘RNI Shavkat Bobojonov	**194**
BUXORONING OILAVIY VA JAMOAVIY MAROSIMLARI (MAHALLIY ERONIYLAR MISOLIDA) Iroda Kalonova	**198**
ELLIPTIK GAPLARNING STILISTIK MAQOMI Rasulov Zubaydullo Izomovich	**204**

MUNDARIJA

PRAGMATIC AND COGNITIVE ANALYSIS OF CONCEPT "PEACE" IN POLITICAL SPEECH Rakhmatova Mehriniso Musinovna., Rakhmonova Jasmina Anvarovna	**209**
TIL EVOLYUTSIYASIDA O'ZGARUVCHANLIK VA TEJAMKORLIK PRINSIPLARI Qobilova Nargiza Sulaymonovna	**215**
ZAMONAVIY INTERNET-MULOQOTDA LINGVOMADANIY BIRLIKLAR FENOMENI Jalolova Nigina Zavqiddin qizi	**224**
DIDAKTIK O'YINLARNING ONA TILI TA'LIMIDAGI O'RNI Kamolova Nilufar Saxibovna	**228**
SAVOD O'RGATISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH G'iyosova O'g'iloy Sultonovna	**232**

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKASIYALAR SOHASIDA NAZORAT INSPEKSIYASI

ГУВОҲНОМА

№1564147 Фаол

"FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669890

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
312386344

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
05.05.2026дан - - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Тошкент шаҳри, Сирғали тумани, Янги Бунёдобод МФЙ, Сергели 6а мавзеси, 8-уй, 148-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат инспекцияси

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Гувоҳнома **№1564147**

Faoliyat turi

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Qo'shimcha ma'lumotlar

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Fanlararo ilmiy tadqiqotlar
Оммавий ахборот воситасининг тили	o'zbek, rus va ingliz tili
Оммавий ахборот воситасининг тури	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Республика миқёсида
Viloyat	
Тарқатилиш шакли	Онлайн

License SYSTEM

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA